"G'AROYIB US-SIG'AR" DEVONIDA TALMEH SAN'ATI

("Layli va Majnun" timsollari misolida)

Ulug'bek Sanaqulov dotsent v.b., (PhD)
Toshkent Kimyo xalqaro universiteti
Samarqand filiali
ulugbeksanakulov84@gmail.com

Annotatsiya: Sharqning mashhur shoirlari, xususan, Alisher Navoiy lirikasida she'riy san'atlarning ko'plab namunalari yaratilgan. Maqolada buyuk shoirning "G'aroyib us-sig'ar" devonida birgina "Layli va Majnun" dostoni qahramonlari misolidagi talmeh qo'llash mahorati yoritib beriladi.

Kalit so'zlar: she'riy san'atlar, talmeh, Navoiy she'riyati, "G'aroyib us-sig'ar" devoni, "Layli va Majnun" dostoni, epik voqeilik, lirik talqin.

Аннотация: Искусство талмех считается одним из основных духовных искусств в нашей классической поэзии, и в прошлом его плодотворно использовали известные поэты Востока, в том числе узбекские поэты. В частности, в лирике Алишера Навои создано множество образцов этого поэтического искусства. В статье освещается мастерство великого поэта в использовании талмеха в одном только дастане "Лейли и Меджнун" и на примере его героев в диване "Гароиб ус-сигар."

Ключевые слова: поэтические искусства, талмех, поэзия Навои, диван "Гароиб ус-сигар," дастан "Лейли и Меджнун," эпическое событие, лирическая интерпретация.

Abstract: The art of Talmeh is considered one of the main spiritual arts in our classical poetry, and in the past, it was effectively used by famous poets of the East, including Uzbek poets. In particular, many examples of this poetic art were created in the lyrics of Alisher Navoi. The article highlights the skill of using talmeh in the example of the epic "Layli and Majnun" and its characters in the great poet's divan "Garoyib us-sigar."

Keywords: poetic arts, talmeh, Navoi's poetry, the divan "Garoyib us-sigar," the epic "Layli and Majnun," epic events, lyrical interpretation.

Ma'lumki, mumtoz badiiy san'atlar she'riyatda qo'llanilish vazifasiga ko'ra ma'naviy, lafziy hamda ma'naviy-lafziy(mushtarak) san'atlarga ajratib o'rganib kelingan. Ushbu tasnifning birinchisi sanalgan ma'naviy san'atlar muayyan she'r ma'nosini kuchaytirishda, lirik ifodaning ta'sirchan bo'lishida muhim o'rin tutadi. Bu guruhning mubolg'a, talmeh, tashbih, tamsil, husni ta'lil, tashxis kabi ko'plab turlari bo'lib, she'riyatda har birining o'ziga xos vazifasi bor. Shundan talmeh (*arab. nazar solmoq, ishora qilmoq)* san'ati she'rda mashhur qissa, bayt yoxud mashhur maqolga ishora qilish usuli1, "*Badiiy asarda biror mashhur voqea, qissa, she'r yoki maqolning o'zini zikr etmasdan unga ishora qilib ketish ham san'at hisoblanadi va uni «talmih» deb ataladi…*"2. Aksariyat shoirlar ijodida bo'lganidek, ulug' shoir Navoiy ijodida ham talmih muhim o'ringa ega. She'riyatda asosan, tarixiy shaxslar, mashhur asarlar qahramonlari yoki biror bir tarixiy voqea, shuningdek joy nomlarining talmeh o'rnida keltirishilishi odatiy hisoblanadi. Tubanda shoirning «G'aroyib us-sig'ar» devonida Layli va Majnun obrazlarining ushbu san'atning eng samarali namunasi sifatida qo'llanilishini ko'rib o'tamiz.

Alisher Navoiy Layli va Majnun obraz-timsollarini ushbu devonning *g'azal, mustazod, muxammas, tarji'band va ruboiy* kabi bir qator she'riy janrlarida talmih o'rnida qo'llaydi. Ularning nisbatan ko'p qo'llanilishi g'azallarda kuzatiladi. She'riy misralarda bu timsollar alohida, ya'ni Majnun yoki Layli tarzida, birgalikda – Layli-Majnun, Majnun-Layli, shuningdek, Farhod-Majnun, Vomiq-Majnun hamda Farhod-Vomiq-Majnun timsollari bilan birga keladi.

1 Бобоев Т. Адабиётшунослик асослари. – Тошкент: Ўзбекистон, 2002. 397 б.

2 Рустамов А. Навоийнинг бадиий маҳорати.- Тошкент: Ғафур Ғулом, 1979. 60 б.

Layli va Majnun timsollari buyuk shoirning turli mavzudagi g‘azallarida o‘ziga xos talqin etiladi. Xususan, hamd ruhida yozilgan g‘azallaridan biriga e’tibor beraylik:

Ne ishka bo‘ldi beorom ko‘zgu aksidek Majnun,

Yuzi ko‘zgusida aksini gar ko‘rguzmadi Laylo.[1.23-b]

Ushbu bayt “Garoyib us-sig‘ar” devonidn o‘rin olgan “Zihe husnung zuhuridin tushub har kimga bir savdo, Bu savdolar bila kavnayn bozorida yuz g‘avg‘o” matla’li ikkinchi hamd g‘azalning 4-bayti bo‘lib, unda Laylo yuzida Olloh zuhurining aks etishi va bundan Majnunning beorom, betoqat bo‘lishi ifodalangan. Shoir bu oshiq-ma’shuqani haqiqiy ishqning tipik timsollari sifatida tilga oladi.

Adabiyotshunos Y.Is’hoqov Navoiy lirikasida ishlatilgan asosiy san’atlarni she’riy matn doirasidagi xarakteri va funksiyasidan kelib chiqib, ularni 10 guruhga ajratib o‘rgangan edi. Shunga binoan talmeh san’atini tashbeh, tansiq ussifot, tamsil, laffu nashr kabi san’atlar qatorida qiyosiy-assosiativ usullar guruhiga kiritadi.3 Haqiqatdan ham agar e’tibor berilsa, quyida keltiriladigan baytlarda bu yaqqol ko‘zga tashlanadi. Layli va Majnun obraz-timsollari Navoiy g‘azaliyotida asosan lirik qahramon va ma’shuqaga qiyosan olinadi. Masalan, “G‘aroyib us-sig‘ar” devonida *“Zavraq ichra ul quyosh sayr aylamas Jayhun aro, Axtari sa’de hilol ichra kezar gardu aro”* deb boshlanuvchi 20-g‘azalning to‘rtinchi baytida muallifning Majnunga murojaati quyidagicha yangraydi:

Borg‘il, ey Majnunki, ul oy zavraqidek tez emas,

Jungkim Laylo amorisin chekar homun aro.[1.41-b.]

(Ey Majnun, tezroq bor, Layli o‘tirgan kajavani keng sahrodan olib o‘tayotgan tuya ul oy kemasidek tez ketayotgani yo‘q.)

Baytda Layli qabilasining ko‘chib ketishi, bechora Majnunning uning ortidan borishi yodga olingan. Shoir ushbu epizodni ma’shuqa diydoriga zoru intizor oshiq

3 Исҳоқов Ё. Навоий поетикаси. – Тошкент: Фан, 1983.106 б.

tasvirini chizishda ustalik bilan foydalangan. Alisher Navoiy buni "Ey Majnun, u oy, ya'ni ma'shuq(yor) hali uzoqqa ketgani yo'q tezroq bor", - deb oshiqqa murojaat etish bilan bayon qiladi.

Hazrat Navoiy lirikada oshiq va ma'shuq obrazini yorqin tasvirini yaratishda aksariyat o'rinlarda Farhod va Shirin, Layli va Majnun, Vomiq va Uzro (Azro) kabi Sharq dostonlarining qahramonlari timsollariga murojaat qiladi. Xususan, shoir nazarida Layli – husn malikasi, go'zallikning tengisiz timsoli bo'lsa, Majnun shu go'zallikka mubtalo, telba oshiq timsolidir. Shu bois Navoiy ko'pgina g'azallarida ma'shuqani Layli, she'rning lirik qahramoni – oshiqni Majnun deya aytishni o'ziga ma'qul biladi. Quyidagi baytga e'tibor beraylik:

Qilsangiz tasviri Laylo husnin ul oydek sizing,
Lek Majnunni Navoiy birla monand aylangiz. [1.242-b.]

Aytish mumkinki, bunda shoir yaratgan ma'shuqa obrazi aynan Layli emas, albatta. Shoir yor husnini Layliga teng qo'yib, ishq dostoni qahramoni Laylining husni misolida ma'shuqa obrazining o'ziga xos go'zalligini ta'riflamoqda. Shoir ba'zan Layli husni haqida xalq orasida afsonalar ko'p yaratilganiga, lekin ma'shuqani unga o'xshatib bo'lmasligini ta'kidlaydi:

El ichra ko'pdurur afsona Layli husnidin,
Sening husnungg'a tashbih etmak oni ne hikoyatdir? [1.219-b.]

Alisher Navoiy g'azallarida Layli va Majnun timsollari doim birgalikda qo'llanilmagan. She'riy misralarda ularning biri qo'llanilsa, o'z-o'zidan ikkinchisi (oshiq Majnun, yoki ma'shuqa Layli) anglashilib turadi. Masalan, quyidagi baytda shoir oshiq his-kechinmalarining murakkab tug'yoni, hayajonini ko'rsatish maqsadida "ishq dashti qahramoni Majnun obrazi"ini badiiy-xayolotida jonlantiradi:

So'rsa Majnun ishq dashtida meni, ayt, ey rafiq
Kim, quyundek itti bu vodiyda sargardon bo'lub. [1.81-b.]

(Ey do'stim, Majnun meni ishq dashtida so'rasa, bu vodiyda quyundek sargardon kezib yo'q bo'lib ketdi, deb javob ber.)

Shoir baytda lirik qahramonni aniqroq tasvirlash maqsadida o‘zini ishq dashtida tasavvur etib, oshiqning ichki va tashqi holatini Majnunga tenglashtirgan.

Alisher Navoiy o‘zining ko‘plab g‘azallarida Majnunning xarakteriga xos turli xatti-harakat va odatlarni keltirish bilan o‘z lirik qahramoni obrazini chizadi, ruhiyatini yoritadi. Masalan, Majnunning Layli uchun jon fido qilishini olaylik. Nazarda tutilganidek, ishqda oshiq uchun asosiy xislat bu yor uchun har lahza mashaqqat chekish, bu yo‘lda kerak bo‘lsa jonini ham ayamaslik hisoblanadi. Majnun umri davomida faqat Layli deb tinimsiz zahmat chekib, Layli xayoli bilan yashab, nihoyat Layli uchun jon beradi. Shunday ekan, Navoiyning lirik qahramoni ham bu borada fidoyilikni Majnundan o‘zlashtiradi. Alisher Navoiyning “Badye’ ul-vasat” devonidan joy olgan 89-g‘azalda shunday baytlar bor:

Magar o‘larin Farhod birla Majnunning
Balov-u dardig‘a ishq ayladi meni voris.[2. 69-b.]

(Mazmuni, *Ishq Farhod va Majnunning o‘lishini bilib, ularning baloyu dardiga meni voris qilibdi.*)

Gap shundaki, epik obrazlar (Layli va Majnunga xos) xarakter-xususiyati (fe’l-odatlari)ning lirikada Navoiy yaratgan oshiq va ma’shuqaga meros bo‘lib o‘tganidir. Navoiy bu bilan haqiqiy oshiqlar aslida shunday bo‘ladi, degan xulosaga keladi.

Xulosa qilib aytganda, Sharq mumtoz she’riyati badiiy-tasviriy vositalarga boy o‘ziga xos poetik olamdir. “Ilmi bade’”ga bag‘ishlangan o‘tmish adabiyotlarida she’riy san’atlarning ko‘plab turlari to‘g‘risida muhim ma’lumotlar berilgan. Buyuk shoir Alisher Navoiyning “Garoyib us-sig‘ar” devonida “Layli va Majnun” dostoni qahramonlarining va shu dostonga xos har bir epizodlar tasvirining o‘ziga xos poetik vazifasi bor. Talmeh san’ati mumtoz she’riyatimizda ma’naviy san’atlarning asosiylaridan biri hisoblanib, qatori o‘zbek shoirlari mohirona foydalanishgan. Ulug‘ shoir she’riyatida ularning talmeh o‘rnida qo‘llanilishi o‘ziga xos rangin badiiy talqinlarni yuzaga chiqaradi. Alisher Navoiy she’riyatida Layli va Majnun

timsollari keltirilgan o'rinlar shoir fikr-kechinmalarining ta'sirchan va yanada yorqin bo'lishini, lirik ifodaning obrazliligini ta'minlagan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Alisher Navoiy.To'la asarlar to'plami. G'aroyib us-sig'ar. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2012. – 804 b.
2. Alisher Navoiy. Layli va Majnun. – Toshkent: G'afur G'ulom, 2006. 317 b.
3. Alisher Navoiy: qomusiy lug'at. – Toshkent: "Sharq", 2016. – 536 b.
4. Hojiahmedov A. She'riy san'atlar va mumtoz qofiya. - Toshkent: Sharq. 1999.- 158 b.
5. Бобоев Т. Адабиётшунослик асослари. – Тошкент: Ўзбекистон, 2002.
6. Навоий А. Бадоеъ ул-васат(Мукаммал асар тўплами, 5 жилд), - Тошкент «Фан» нашриёти 1990. 528 б.
7. Рустамов А. Навоийнинг бадиий маҳорати.- Тошкент: Ғафур Ғулом, 1979.
8. Исҳоқов Ё. Навоий поетикаси. – Тошкент: Фан, 1983. – 168 б.
9. Ҳайитметов А. Навоий лирикаси.(тўлдирилган ва тузатилган иккинчи нашр) –Тошкент: Ўзбекистон, 2015.- 323 б.